

DYNAMIC CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL POSSIBILITIES OF TEACHERS.

Kholmatova Gulyora Obidovna Kokand State Pedagogical Institute, the theory of education and upbringing Preschool education 2nd stage master
Supervisor: Associate Professor **Sh.Khujamberdiyeva.**

Annotation: This article describes the educational system, pedagogical methods used to improve the intellectual abilities of learners, games, and their importance.

Keywords: Continuing education, intellectual, education, competence, method, game, education, purpose, tasks, technology.

TARBIYACHILARNI INTELEKTUAL IMKONYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DINAMIK SHART SHAROITLARI.

Xolmatova Gulyora Obidovna Qo'qon davlat pedagogika instituti, ta'lif va tarbiya nazaryasi
maktabgacha ta'lif 2- bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: dotsent Sh.K Xujamberdiyeva.

Annotasiya: Ushbu maqolada ta'lif tizimi, unda o'r ganuvchilarining intellektual qobiliyatlarini oshirish uchun qo'llaniadigan pedagogic metodlar, o'yinlar, ularning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lif, intellektual, ta'lif, slohiyat, metod, o'yin, tarbiya, maqsad, vazifalar, texnologilar.

Kirish: Bugungi kunda ta'lif tizimi jarayonida tarbiyachilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish har bir o'qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan "Uzluksiz ta'lif tizini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini yanada oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish" ustuvor vazifalarga muvofiq boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish ko'nikmalarini oshirib borishlari ham dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu maqola uzluksiz ta'lif tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, bunda intellektual o'yinlar, multimediya taqdimotlaridan foydalanish samaradorliklari ochib berilgan. Shuningdek, qobiliyat tushunchasi, uning o'quvchilar hayotidagi o'rni haqida fikr yuritilgan.

Asosiy qism: Mavzuning dolzarbliji o'quvchilarining individual psixologik qobiliyatlarini hisobga olgan holda aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quvchilarining intellektual va kognitiv tanlovlarda, olimpiadalarda, musobaqalarda va hokazolarda ishtiroy etishga chuqurroq tayyorlarlik ko'rish zaruriyati bilan bog'liq. Dastur o'quvchilarining umumiy madaniyatini shakllantirishga, ularning ma'naviyaxloqiy, ijtimoiy, shaxsiy va aqliy rivojlanishiga ko'maklashadi; ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirishga qaratilgan. Bolalar va o'smirlarning intellektual, tashkiliy va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha ishlarni intellektual dam olish, ijtimoiy va loyihibaviy faoliyatiga kattalar va bolalarning birgalikdagi faoliyati orqali barcha intellektual va kognitiv tadbir larning faol tashkilotchilari va ishtiroychilari sifatida kiritishdan iborat. Bu ishni amalga oshirishda quyidagi texnologiyalardan foydalaniladi:

- muammoli ta'lif texnologiyalari (o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, unda o'qituvchi tafakkurning rivojlanish qonuniyatlarini bilishga asoslanib, o'quvchilarining fikrlash qobiliyati va bilish ehtiyojlarini shakllantirish bo'yicha maqsadli ishlarni olib borish uchun maxsus pedagogik vositalardan

foydalanadi);

-o‘yin texnologiyasi;

- loyihaviy o‘qitish texnologiyalari (muayyan natijaga erishish uchun talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish yo‘llari, qiziqish, o‘quvchining rivojlanayotgan shaxsini ijodiy o‘z-o‘zini anglash, unga qiziqish har qanday muammoni hal qilish jarayonida uning intellektual va jismoniy qobiliyatini, iroda va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish);

- tanqidiy fikrlashni rivojlantirish (qiziquvchanlikning namoyon bo‘lishi, tadqiqot usullaridan foydalanish, savollar tuzish, muntazam ravishda javob izlash, dalillarning sabablari va oqibatlarini ochib berish, umumiy qabul qilingan haqiqatlarga nisbatan shubha, nuqtai nazarni ishlab chiqish va mantiqiy dalillar bilan himoya qilish qobiliyati);shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv texnologiyalari (maksimal rivojlanish (oldindan belgilanganlarni shakllantirish emas) bolaning shaxsiy bilim qobiliyatlarini mavjud.

Intellektual o‘yinlar o‘quvchilarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantiribgina qolmasdan, ularning fikrlash, xulosalash, o‘z-o‘zini namoyish eta olish, o‘z fikrini erkin bayon eta olish, jamoaga kirishuvchanlik kabi xislatlarini shakllantiradi. Intellektual o‘yinlar nafaqat o‘qitishning amaliy yo‘nalishi kuchayishiga, balki o‘quvchilarining dars jarayonida o‘zlashtirayotgan nazariy bilimlarini mustaqamlanishiga olib keladi. Ta‘kidlash joizki, intellektual o‘yinlarni tashkil etishdan oldin bu jarayonga puxta tayyorgarlik ko‘rishi lozim. Bunda asosiy e’tibor mashg‘ulot jarayonida qo‘llaniladigan intellektual o‘yinlardan mavzuga moslarini tanlash, mashg‘ulotning qaysi bosqichida ularni amalga oshirilishini belgilash, o‘yinning shartini o‘quvchilarga aniq tushuntirish kabilarga qaratiladi. Garchi, intellektual o‘yinlar yangi bilimlarni chuqur bermasada, darsning qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Makatabgacha o‘quvchilarining ta’lim jarayonidagi nazariy bilimlarini yanada rivojlantirish, ularda mustaqil fikrlash, muammoga ijodiy yondoshish layoqatlarini rivojlantirishda intellektual o‘yinlardan unumli foydalanish ijobiy samara beradi. Intellektual o‘yinlarning asosiy maqsadi – o‘quvchilarining dunyoqarashini kengaytirish, fikrlash qobiliyatlarini oshirish, bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishdan iborat.

Xulosa:Aksariyat olimlarning fikricha, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish muammoli o‘qitishlarsiz rivojlantirilmaydi. Muammoli ta’lim texnologiyalari maktabagcha o‘quvchilarining intellektual qobiliyatları rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda multimediya taqdimotlarining ham o‘rni katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarboyev Ilhom “ Ta’lim jarayonida yoshlarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik asoslari” Jizzah 2013 55 b
2. Poddyakov A.N. Tadqiqot faoliyatini o‘rganish va rivojlantirishning metodologik asoslari // Shkol.texnol.-2006.-№3. - 85-91 betlar.
3. Obuxov A.S.An'anaviy madaniyat voqelegi kontekstida shaxsiyat psixologiyasi. Monografiya. M .: "Prometey" nashriyot uyi, MPGU, 2005. 20 betlar.